



KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA QALB KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Sayfiddinova Dildora Shovkiddin qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Qo'shma ta'lim dasturlari kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillarida somatik birliklardan yurak komponenti asosida shakllangan frazeologizmlar semantik va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda, ayniqsa, koreys va o'zbek tillaridagi “qalb” (마음) komponentli iboralar semantik maydon, struktur modellari hamda konseptual metafora nazariyasi asosida o'rganiladi. Ya'ni har ikki tilda yurak konseptining ifodasi orqali insonning emotsional, irodaviy va ijtimoiy holatini ifodalovchi universal kognitiv model sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, ularning struktur va metaforik realizatsiyasida muayyan tipologik farqlar va o'xshashliklari, variantlilik qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: somatik birlik, frazeologizm, yurak konsepti, kognitiv tilshunoslik, semantik tahlil.

Tilshunoslikda inson tanasiga oid leksemalar asosida shakllangan frazeologik birliklar alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Yurak biologik a'zo nomi bo'lib, ushbu konsept qalb, dil, ko'ngil kabi sinonimik qatlam, koreys tilida esa 심장 tana organi 마음, 가슴 leksemalari orqali konnotativ ma'no jihatdan emotsional ekspressiv ifoda vositasi sifatida qo'llanilib, turli tillarda insonning ichki dunyosini ifodalovchi asosiy semantik markazlardan biri hisoblanadi. Va kognitiv tilshunoslik doirasida bu hodisa konseptual metafora orqali izohlanadi, ya'ni abstrakt tushunchalar konkret tafakkur orqali idrok etiladi. Shu nuqtai nazardan, koreys tilidagi 마음, 가슴 leksemasi nafaqat qalb, balki ong, ruhiy holat va psixologik markaz tushunchalarini ham o'zida mujassam etadi. Koreys tilidagi 마음, 가슴 komponentli frazeologizmlar semantik jihatdan bir necha asosiy guruhlariga ajratiladi va ular insonning ichki tajribasini turli konseptual modellarda aks ettiradi. Avvalo, emotsional holatni ifodalovchi birliklar alohida guruhni tashkil etadi. Masalan, 가슴이 아프다 dili og'rimoq birligi xafa bo'lmoq ruhiy og'riqni ifodalab, unda jismoniy og'riq modeli psixologik



holatga ko‘chiriladi. Xuddi shuningdek, *마음 이 무 겹 다* (*ko‘ngli og‘ir*) *ko‘ngli g‘ash* iborasida og‘irlik metaforasi orqali tashvish va mas’uliyat hissi ifodalanadi. Ushbu birliklar emotsiya, intensivlik va subyektiv tajriba semalariga ega bo‘lib, emotsiya — jismoniy ta’sir konseptual metaforasini namoyon qiladi. O‘zbek va koreys tillaridagi yurak (qalb, ko‘ngil, dil) komponentli frazeologizmlarni struktur, semantik va kognitiv jihatdan tahlil qilishdir. Ikkinchi muhim semantik guruh irodaviy va qaror jarayonlarini ifodalovchi frazeologizmlardan iborat. *마음을 먹 다* (qalbini yemoq) *ko‘ngliga tugib qo‘ymoq* iborasida qaror qabul qilish jarayoni “yemoq” fe’li orqali ifodalanadi. Bu esa “qaror –iste’mol” metaforasini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, *마음을 정 하 다* (qalbini belgilamoq) va *마음을 다 잡 다* (qalbini mahkam tutmoq) *yurak yutmoq* birliklari orqali insonning ichki irodasi va o‘zini boshqarish jarayoni ifodalanadi. Bu birliklarda niyat, qaror, iroda semalari ustunlik qiladi. Uchinchi guruh baholash va subyektiv munosabat bilan bog‘liqdir. *마음에 들 다* (*ko‘ngliga kirmoq*) *ko‘ngliga o‘tirmoq* iborasi orqali shaxsning tashqi obyektga nisbatan ijobiy bahosi ifodalanadi. Bu yerda “qalb” ichki baholash makoni sifatida talqin qilinadi. *마음에 새 기 다* (qalbiga yozmoq) *qalbida muhrlanib qolmoq* birligida esa xotira jarayoni yozib qo‘yish metaforasi orqali ifodalanadi, bu esa “xotira — yozuv” modelini aks ettiradi. To‘rtinchi guruh ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklardan iborat. *마음을 열 다* (qalbini ochmoq) *ko‘nglini ochmoq*, yoki qalb eshigini ochmoq va *마음을 닫 다* (qalbini yopmoq) *qalb eshiklarini yopmoq* iboralari orqali ko‘ngil va qalb eshiklari obrazlari insonning boshqalarga nisbatan ishonchi yoki munosabatlarni munosabatlarni to‘xtatmoq ma’nosini ifodalaydi. *마음 이 통 하 다* (qalbi o‘tmoq) *ko‘ngli-ko‘ngliga payvand bo‘lmoq* esa o‘zaro tushunish va emotsional yaqinlikni bildiradi. Bu yerda qalb (마음) — makon yoki konteyner konseptual metaforasi asosiy rolni o‘ynaydi. Mazkur frazeologizmlarning badiiy matnlarda qo‘llanishi ularning pragmatik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. O‘zbek tilidagi yurak komponentli frazeologizmlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, semantik jihatdan



yuqori darajada o'xshashlik mavjud. Har ikkala tilda ham yurak, qalb, dil insonning emotsional va psixologik markazi sifatida talqin qilinadi, ya'ni qalb ochilishi yoki yopilishi mumkin bo'lgan makon sifatida talqin qilinadi. Mazkur frazeologizmlarning struktur tahlili shuni ko'rsatadiki, koreys va o'zbek tillarida ular asosan quyidagi modellarda realizatsiya qilinadi: ot+kelishik+fe'l yoki sifat. Bu modellarda “마음” komponenti turli sintaktik rollarni bajaradi va ular orqali struktur munosabatlar aniqlanadi. Bu holat koreys tilining sintetik elementlarga boy agglutinativ tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. O'zbek tilidagi “yurak” komponentli frazeologizmlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, semantik jihatdan yuqori darajada moslik mavjud. Har ikkala tilda ham yurak (qalb, dil) insonning emotsional va psixologik markazi sifatida talqin qilinadi. Masalan, koreys tilidagi 가슴이 답답하다 o'zbek tilidagi *yuragi siqilmoq* birliklari umumiy salbiy emotsional holat semasiga ega. Biroq struktur jihatdan ular keskin farqlanadi: o'zbek tilida affiksatsiya ustun bo'lsa, koreys tilida leksema tizimi asosiy rol o'ynaydi. Pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, 가슴, 마음 komponentli frazeologizmlar koreys tilidagi nutqda juda yuqori chastotaga ega bo'lib, ular kundalik kommunikatsiyada, badiiy matnlarda va ommaviy axborot vositalarida faol qo'llanadi. Ular nutqning emotsional-ekspressiv boyligini oshiradi va muloqot ishtirokchilari o'rtasida psixologik yaqinlikni ta'minlaydi (Crystal, 2003). Shunday qilib, koreys va o'zbek tilidagi “가슴-yurak, 마음-qalb, dil” komponentli frazeologizmlar chuqur kognitiv va semantik tizimga ega bo'lib, ular orqali insonning ichki dunyosi ko'p qatlamli tarzda ifodalanadi. Somatik frazeologizmlar borasida frazeologiya bo'limi asoschilaridan biri Karles Bally emotsional-ekspressiv birliklar deb hisoblaydi. Ayniqsa, yurak, ko'z, qo'l, bosh orqali subyektiv baho beradi. Viktor Vinogradov frazeologizmlarni tasnif qilgan birikma, butunlik ma'nosini beradi deb tavsiflaydi. Uning fikricha, somatik iboralar ko'pincha frazeologik butunlikka kirib, ma'no ko'chma va ajralmas bo'ladi. Kognitiv metafora nazariyasi asoschilari George Lakoff va Mark Johnson inson tana tajribasi orqali abstrakt tushunchalarni angelaydi. Somatik frazeologizmlar konseptual metafora mahsuli deb ta'kidlaydi. Til va madaniyat bog'liqligini o'rgangan polshalik tilshunos Anna Verjbiska somatik birliklar milliy mentalitetni aks ettiradi. Har bir xalq bir xil tana a'zosi orqali turli ma'no berishi aytadi. O'zbek tilshunoslari Vafoyeva Muhayyo somatik frazeologizmlarni nafaqat til birligi, balki madaniyat, tafakkur va psixologiya bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qiladi. Frazeologik birliklar



bo'yicha tadqiqotchi Shavkat Rahmatullayev somatik frazeologizmlar tilning obrazlilik darajasini oshirib, ular xalqning tarixiy-madaniy tajribasini saqlashi haqida so'z yuritadi. Koreys-o'zbek qiyosiy tadqiqotchisi Iroda Bayonxonova somatik iboralar lingvopsixologik xususiyatga egaligi haqida fikr yuritadi. Shunday ekan, Yurak komponentli frazeologizmlar insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va emotsional tajribasini til vositasida ifodalovchi muhim birliklar hisoblanadi. Somatik frazeologizmlar inson tafakkurida shakllangan abstrakt konseptlarning lingvistik verbalizatsiyasini aks ettirib, psixologik jarayonlarning kognitiv modelini namoyon qiladi. Shu jihatdan, ularning koreys va o'zbek tillaridagi muqobil birliklar bilan qiyosiy tahlili kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va tipologik tadqiqotlar uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tahlillar koreys va o'zbek tillarida "yurak/qalb" konsepti emotsional va ruhiy holatlarni ifodalovchi markaziy semantik yadro sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Mazkur konsept asosidagi frazeologik birliklar universal kognitiv model sifatida insonning ichki kechinmalarini verbal ifodalashga xizmat qiladi. Frazeologizmlarning struktur-semantik o'xshashliklari har ikki tilning agglyutinativ tabiati bilan izohlansa, mavjud tafovutlar milliy-madaniy tafakkur va mentalitet omillari bilan bog'liqdir. Kelgusida korpus lingvistikasi va diskurs tahlili metodlari asosida koreys va o'zbek tillaridagi yurak komponentli frazeologizmlarning funksional-semantik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish tadqiqot natijalarining empirik asosini va ilmiy aniqligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, G. O'zbek tilining grammatikasi –T., "O'qituvchi", 1996.
2. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge., "Cambridge University" 2003.
3. Kövecses, Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: "Oxford University", 2010.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago, "University of Chicago", 1980.
5. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent, "Fan" 2006.
6. Sohn, H.-M. (2001). The Korean Language. Cambridge: "Cambridge University", 2001.
7. 국립국어원. "표준국어대사전". 서울: 두산동아, 1999.
8. 김종택. "한국어 관용어 사전". 서울: 민중서림, 2004.



9. 연세대학교 언어정보연구원. “연세 한국어 사전”. 서울: 연세대학교 대학출판문화원, 1998.
10. 서정범. “한국어 속담·관용어 사전”. 서울: 고려대학교민족문화연구원, 2000.